

**ABDULLA QAHHORNING “MING BIR JON” HIKOYASIDA HAYOT VA O’LIM  
TALQINI**

**Husenova Shahribonu Fayzullo qizi**  
**Buxoro davlat pedagogika institutii**  
**O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi 1-bosqich magistranti**  
**E-mail: husenovashahribonu@gmail.com**  
**<https://doi.org/10.5281/zenodo.18228507>**

**Annotatsiya:** Mazkur tezisda Abdulla Qahhorning “Min bir jon” hikoyasida hayot va o’lim falsafasining badiiy talqini tahlil qilingan. Ijodkorning o’ziga xos uslubi, inson ruhiyatidagi holatlari yoritiladi. Tahlil jarayonda o’limga olib boruvchi omillar, inson tabiatidagi ojizlik, inson irodasining kuchi ko’rsatib berilgan.

**Kalit so‘z :** hikoya, fenomen, hayot, o’lim, psixologiya, askiya, kulgi, iroda, ojizlik, bemor, hayotga muhabbat, qismat, kuch.

**THE INTERPRETATION OF LIFE AND DEATH IN ABDULLA QAHHOR’S  
SHORT STORY “MING BIR JON”**

**Shahribonu Fayzullo qizi Husenova**  
**Bukhara State Pedagogical Institute**  
**Master’s Student, 1st Year, Department of Uzbek Language and Literature**  
**E-mail: husenovashahribonu@gmail.com**

**Annotation.** This thesis analyzes the artistic interpretation of the philosophy of life and death in Abdulla Qahhor’s short story “Ming Bir Jon”. The author’s distinctive creative style and the psychological states of the human soul are explored. In the course of the analysis, the factors leading to death, human weakness by nature, and the strength of human will are revealed.

**Keywords:** short story, phenomenon, life, death, psychology, satire, humor, will, weakness, patient, love of life, fate, strength.

**ФИЛОСОФСКОЕ ОСМЫСЛЕНИЕ ЖИЗНИ И СМЕРТИ В РАССКАЗЕ  
АБДУЛЛЫ КАХХАРА «МИНГ БИР ЖОН»**

**Хусенова Шахрибону Файзулло кизи**  
**Бухарский государственный педагогический институт**  
**Магистрант, 1-й курс, кафедра узбекского языка и литературы**  
**E-mail: husenovashahribonu@gmail.com**

**Аннотация.** В данной тезисной работе анализируется художественное осмысление философии жизни и смерти в рассказе Абдуллы Каххара «Минг бир жон». Раскрываются своеобразие творческого стиля писателя и психологические состояния человеческой души. В процессе анализа выявляются факторы, приводящие к смерти, природная слабость человека, а также сила человеческой воли.

**Ключевые слова:** рассказ, феномен, жизнь, смерть, психология, сатира, юмор, воля, слабость, больной, любовь к жизни, судьба, сила.

XX asrdan, to bugunga qadar Abdulla Qahhor hikoyalari kitobxonlar orasida o‘z qiymatini yo‘qotmay kelyapti. Uning asarlaridagi mavzu ko‘lami ham xilma-xil. Bir hikoyaning o‘zida ham ijtimoiy muammolar, ham jamiyat a‘zolarining bir-biriga munosabati, psixologik holatlar o‘rtasidagi o‘xshash va farqli tomonlar mujassamlashgan. Har bir kitobning xotimasi

bo'lganidek, hayotning ham o'z yakuni, o'limi bor. Adibning "Ming bir jon" deb nomlangan hikoyasida, aynan insonlarning psixologik holati va o'zaro munosabati, hayot va o'lim fenomeni orqali badiiy talqin etilgan. Shuningdek muallif, o'quvchiga hayotning murakkabligi, inson o'zi tanlagan tanlovi uni o'lim chegarasidan qaytarishiga ishora qiladi.

Iroda hammada ham bor ammo, uning kuchi hammada bir xil emas. Biz Navoiy asarlarida "komil inson" timsolini ko'rsak, unga ergashishga, o'xshashga harakat qilamiz. Xuddi shunday biz intilishimiz, ega bo'lishimiz kerak bo'lgan iroda ham, asar qahramoni Masturada aks etgan. U o'lim to'shagida roppa-rosa o'n yil yotdi. Taqdirning og'ir sinovlariga, mana shuncha yil kurashib yashashga nima yordam berdi? Hayotga muhabbami?. Metin irodami?. Balki, yaxshi turmush o'rtoqdir. Ha shu trio qahramoning hayot falsafasini yaratgan. Yashashga kuch bergan. Mastura betob insonlar hayotdan umidini uzmasliklarini, rozi rizolik uchun emas, hali bu dunyoga to'ymanini aytish uchun "og'iz juftlashini" ta'kidlaydi. Kasallikni yengib o'tishga ishonch, trik qolishga intilish hayotga bo'gan muhabbatdan dalolat bermaydimi?. Shu kabi qahramonlar nafaqat o'zbek adabiyotida balki, jahon durdonalarida ham bor. Misol uchun "So'nggi yaproq", "Robinzon Kruzo", "Hayotga muhabbat" kabi ko'plab G'arb kitoblarida, o'lmay qolish uchun hayotdan o'zlari uchun najot izlab, uni topgan insonlar gavdalantirilgan. Ammo Qahhorning hikoyasida bu holat, bir o'zbek ayolining matonati, xushchaqchaqligi bilan ko'rsatilgan. Aynan o'zbek ayoli asar davomida o'zidagi kuch bilan atrofdagilarini ajablantiradi, ularni ham matonatli bo'lishga undaydi.

Inson tabiatidagi o'jizlik, shaxs fojeasiga olib keladi. Abdulla Qahhor asarlaridagi o'ziga xosliklarning yana biri, shaxs fojiasining bo'ishi. Shu nuqtayi nazardan "Ming bir jon" hikoyasida qarma- qarshi qahramonlar mavjud. Biri hayotda dalda beruvchi insonlari yo'q, sal narsadan hayratlanadigan, sog'ligi uchun, yashash uchun kurasholmagan Hoji aka va buning butkul teskarisi bo'lgan Masturadir. Bosh qahramon o'z kasalini o'jizlik deb bilmadi, kulgi bilan uni yengishga harakat qilad, hatto trik qolishiga ishonardi. O'zi " O'sha tobda menga tasalli berib aytilgan har bir so'z ishonchimga raxna, ko'nglimga g'ulg'ula solishi mumkin edi"- deb aytgan edi. Hoji akachi, o'z kasali u yoqda tursin Masturaning o'n yil betob bo'lib yotganiga ishongisi kelmadi, bir ayol shuncha vaqt dard bilan olishganiga hayron-u lol edi. U Masturaga nisbattan sog' ediku, o'z o'yog'ida yurar, qo'llari bilan gazeta o'qir, ovaqat yeyar edi. Buni qarangki, hayotda yashab qolish uchun buning o'zi yetarli bo'lavermas ekan. Ayol o'z ovqatini o'zi yeyish tugul, qorniga quyishardi, lekin bu ham uni yengolmadi. Odamlar bilan kulib dildan suhbatlashishga harakat qilardi. Go'yo o'z g'uborini kulgi bilan yengishga urinar edi.

Hikoyada chigal insoniy qismatlar mavjud. Qahramon hali turmush qurganiga bir yil bo'lmasdan dardga yo'liqadi. Akramjon esa u bilan yelkadosh bo'lib hayotda yashab qolishi uchun "bir daqiqalik oromi uchun o'ng ko'zini o'yib berishga ham tayyor" inson edi. Haqiqiy umr yo'ldoshning bo'lishi Mastura uchun bebaho ne'mat. Qaysidir ma'noda bu Akram va Mastura uchun hayotning eng mashaqqatli sinovi edi. Ko'plab oilalar arziyas vajlar sababli ajrashib ketayotgan bir vaqtda bunday fidoiylilik zamonamizdagi har qanday odamning ham qo'lidani kelavermaydi. Asar voqelalari shifoxonada boshlangan bolsada, unda davolanayotgan qahramonlar keyinchalik hayot tashvishlari bilan tarqab ketishadi. Nega hikoya qiluvchi o'zi uchun butkul yod inson taqdiriga shu darrajada qiziqib qoladi? Boshida aytganimizdek, jismi zaif bo'lsada ammo joni atrofdagilardan ming bora kuchliroq Masturani yashashga haqli deb

bilar, unga tasalli berish uchun operatsiyasiga ham borgan edi. Bu kabi insoniy fazilat ham biz o'zbeklarga xosdir.

So'ngi nafasini kutib yotgan inson bilan, so'ngi nafasi bo'lib qolmasligi uchun kurashish o'rtasida farqlanish mavjud. Ayolni ko'rgani kelgan insonlar ham uning holatini ko'rib, og'iz juftlolmay qolsa bundan o'ksimay, bu holatni hazil bilan o'zgartirardi. “- Akramjon daftaringizga yozib qo'ying: uch mardiy maydon meni ko'rgani kirgan edi, bittasi arang qochdi-yu, ikkitasi qochgani ham bo'lmay, o'tirib qoldi.”- deb hangomaga yoyishga o'zida kuch topa oladi. Masturani tanimay turib uning kulgisini eshitgan odamga tabassumi zaifdek tuyuladi. Ilk bor ko'rgan odam esa murdadan farqlolmay qoladi. “...Ko'z o'ngimizda xasta emas, o'lik, haqiqiy o'lik, sap-sariq teri-yu suyakdan iborat bo'lgan murda ichiga botib ketgan ko'zlarini katta ochib yotar edi...” Bular insonlar ko'rishi bilanoq uyg'onadigan tasavvur va ulardagi psixologik holatdir. Og'ir holatda yotgan insonga nima deyish mumkin va mumkin emas, kabilarni o'ylash jarayonida bemorni ko'nglini cho'ktirmaslik, nojo'ya gapirib toliqtirib qo'ymaslik eng muhimi. Mastura esa aksincha aynan shu mavzuda gapirar, bu uning uchun og'riqli emsligini ko'rsatmoqchiday bo'lardi. Qahramon uchun tabassu- hayotga pozitiv qarashga, unga umid bilan boqishga ko'mak beradi. Hikoya so'ngida Mastura shu darajada o'zgarib ketadiki, xuddi “Chinor” romanidagi holatdek qahramonni faqat ko'zidangina tanib olish mumkin bo'ladi. Hikoya shubillan tugamad. U bir umrni ham tugatdi. Kitobxonni o'ylashga, hayratlantirishga so'ngi bora urinish, Hoji akaning o'limi bilan amalga oshirildi. Demak ishonch, iroda, hayotga muhabbat insonni dunyoga qaytara oluvchi kuch bo'la oladi.

Qahhor hikoyasida hayot va o'lim bir-biriga zid tushunchalar bo'lsa-da, ular ajralmas holda tasvirlanadi. Ushbu asarda bu ikki tushuncha bir-birini to'ldiruvchi hodisa sifatida namoyon bo'lgan. “Ming bir jon” hikoyasida qahramonning ruhiy holati, o'quvchiga saboq bera oladi, uni mushohada yuritishga undaydi. Yashash uchun moddiyatning ahamiyatidan ko'ra, ma'naviy tuyg'ular ustunligi asar qahramonlari timsolida aks ettirilgan. Istalgan inson bu holatga tushib qolishi mumkin ammo, bundan chiqib ketish uchun yaxshi hamroh, sog'lom fikr, bir biriga ishonch bo'lsagina amalga oshirib bo'ladi. “Noumid shayton”, umidsizlik insonni har tarafga yo'rg'alatar. Faqat so'ngi chegara o'lim bolib qolishidan saqlansa bas.

### **Adabiyotlar, References, Литературы:**

1. Abdulla Qahhor . Ming bir jon . Toshkent: Ziyo nashriyoti, 2019.
2. Abdulla Qahhor. Anor hikoyalar to'plami. Toshkent: Adabiyot uchqunlari nashriyoti. 2019.
3. Abdulla Qahhor. Adabiyot muallimi hikoyalar to'plami. Toshkent. Ziyo nashriyoti. 2019.